

Sayfullayeva Shoira Iqboljon qizi

O‘zMU Lingvistika(nemis tili)

mutaxassisligi 2-kurs magistri

ilmiy rahbar: F.f.f.dok. (PhD) Tilovova G.A.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimizda olima xotin-qizlar uchun yaratilayotgan keng ko‘lamli islohotlar xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Xotin-qizlar ta’limi, chora-tadbir, milliy dastur, Olima ayollar jamiyati, Yelena Samuilovna Kubryakova, morfologiya.*

Keywords: *Women’s education, action, national program, Society of Women Scientists, Yelena Samuilovna Kubryakova, morphology.*

*Oilada bir nafar qiz o‘qib, oliy ma’lumotga, zamonaviy kasb-hunarga ega bo‘lsa,
xonadondagi muhit butunlay o‘zgaradi*

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Barchamizga ma’lumki, so‘ngi yillarda yurtimiz rivojlanishi yo‘lida ko‘plab yangidan yangi islohotlar olib borilmoqda. Shu o‘rinda, bir narsani takidlash joizki, barcha ayollarni jamiyatda va oilada o‘z o‘rnini topishi uchun ko‘plab ishlar amalgalashirilib kelinmoqda. Hozirgi kunda olima ayollarni safini kengaytirish, ularga moddiy yordam ko`rsatish, oiladagi ayollarga bo‘lgan zo‘ravonliklarga barham berish maqsadida yurtboshimiz tomonidan ko‘plab chora tadbirlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Xotin-qizlar ta’limini qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi ishlab chiqildi. Bu haqida muhtaram yurboshimiz 2022-yil 7-mart kuni “8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan o‘tkazilgan marosimda shunday bayon qildi:

“Zukko va bilimdon xotin-qizlarning ilm-fanga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqini oshirish maqsadida biz bir qancha muhim chora-tadbirlar belgiladik. Jumladan, kelgusi o‘quv yilidan boshlab magistraturada o‘qiyotgan barcha qizlarning kontrakt pullarini to‘liq budgetdan qoplab berish uchun har yili 200 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi; doktorantura yo‘nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi.

Bu ishlarni tizimli ravishda tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi huzurida “Olima ayollar jamiyati” tuziladi. Ushbu jamiyat mamlakatimizda va xorijda ilm-fan sohasida yuksak yutuqlarga erishayotgan olima

ayollarimizni jipslashtirib, ularning aql-zakovat nurini hayotimizning har bir jabhasiga kirib borishi uchun o‘ziga xos parvoz maydoniga aylanadi.

Zahmatkash olimalarining mashaqqatlari va sharafli mehnatini munosib rag‘batlantirish, ular uchun har jihatdan qulay sharoit yaratish maqsadida “Olima ayollar jamiyati”ga har yili 50 milliard so‘m mablag‘ ajratiladi.

Umuman olganda, yuqorida aytilgan barcha maqsadlarga joriy va kelgusi yil uchun 1,8 trillion so‘m yo‘naltiriladi.”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7-martdagি PF-87-son Farmoni 3-bandining “b” kichik bandi birinchi xatboshisiga muvofiq davlat olyi ta’lim muassasalarining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida Davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so‘m moliyalashtirish haqidagi qaroriga muvofiq barcha magistratura bosqichida o‘qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari to‘lab berildi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan foydalangan holda men magistratura bosqichida tahsil olmoqdaman. Bunday shart-sharoitlar, bilimli, ziyoli olma ayollarning yetishib chiqishiga zamin yaratadi.

Magistrlik dissertatsiyasiyam mavzusi “Nemis tilida so‘z yasalish formalari(Derivatsiya)” hisoblanib, ushbu mavzu doirasidagi izlanishlar davomida ko‘plab olim va olimalarining tilshunoslikga qo`shgan hissalari haqida ma`lumotga ega bo`ldim. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, tilshunos olma sifatida Yelena Samuilovna Kubryakova aynan ushbu sohada olib borgan izlanishlari bilan ajralib turadi.

Yelena Samoilovna Kubryakova filologiya fanlari doktori, professor, Rossiya Federatsiyasining xizmat ko‘rsatgan fan arbobi hisoblandi, u 29-oktyabr kuni 1927-yil Sankt-Peterburg shahridagi taniqli radiolog S. A. Reynber oilasida tavallud topgan. Y. S. Kubryakova nazariy tilshunoslik, onomasiologiya, morfologiya va so‘z yasalishi, kognitiv lingvistika, diskursiv tahlil sohasidagi eng yirik olimalardan biri sanalanadi. U 1951- yil Moskva davlat universiteti filologiya fakultetining roman-german bo‘limini tugallab, so‘ngra chet el adabiyoti kutubxonasida o‘z ish faoliyatini boshlagan. 1955-yilda german tillarining tarixiy morfologiysi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1959-yilda SSSR fanlar akademiyasining tilshunoslik institutiga germanistika va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasida faoliyat olib boradi. 1972-yilda “Основы морфологического анализа германских языков” nomli doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlagan va 1974-yilda “Основы морфологического анализа” nomi bilan chop etildi va ushbu asar dunyo bo‘ylab mashhurlikga erishgan. Olimaning ushbu asari orqali men nemis tilida affiksatsiya orqali so‘z yasalishi haqida ko‘plab ma`lumotlarga ega bo‘ldim. Bundan tashqari taniqli tilshunos Yelena Samoilovna Kubryakova 360 dan ziyod ilmiy asarlarini nashr etgan. Bularga quyidagilarni misol qilib keltirsak bo‘ladi: “Что такое словообразование” (1965),

“Части речи в ономасиологическом освещении,, (1978), “Части речи с когнитивной точки зрения” (1997), “Язык и знание,, (2004), va boshqalar. Kubryakova so‘z yasalishi sohasidagi tadqiqotlari bilan mashhur bo‘lib, asarlari so‘z yasalishi, so‘z hosil qilish jarayonlarini modellashtirish va ularning o‘ziga xos xususiyatlari kabi muammolarni ishlab chiqishga katta hissa qo‘shtgan.

E. S. Kubryakova rus olimlarining tilshunoslik sohasidagi iqtiboslari reytingining birinchi o‘rinni egallagan.

Kubryakova ilmiy mакtabining asoschisi hisoblanadi — “Кубряковского братства,, 20 dan ortiq filologiya fanlari doktori va 40 nafar nomzodni birlashtirgan. Buyuk olma bundan ko‘rinib turganidek, Tilshunoslik olamiga o‘zining katta hissasini qo‘shtgani bilan ajralib turadi. Kubryakova 2011-yil 27-iyun kuni Moskva shahrida bu olamni tark etdi.

Ushbu ma’lumotlar orqali biz tilshunos olima Yelena Samoylovna Kubryakova nemis tili rivojiga ulkan hissa qo‘shtgani, hayoti davomida ko‘plab izlanishlar olib borib, tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirganini guvohi bo‘limishimiz mumkin. Olimaning tilshinoslikga qo‘shtgan hissai orqali biz butun dunyoda xotin-qizlarga bo‘lgan e’tibor qanday yuksak darajada ekanligini anglab yetishimiz mumkin. Bizning ham mamlakatimizda ko‘plab olma ayollar mavjud. O‘ylaymizki, kelgusi yillar davomida olima, zukko ayollarning safi bundanda kengayib boradi va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Xotin-qizlar ta’limini qo’llab-quvvatlash milliy dasturi o‘z natijasi beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. “Shavkat Mirziyoyevning 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan marosimda so‘zlagan nutqi”. Daryo.uz (2022-yil 7-mart)
- 2.Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.08.2022-y., 09/22/447/0741-son; 07.04.2023-y., 09/23/143/0199-son
3. Современные российские лингвисты, 2019, с. 271.
4. “Кубряковское братство живёт и творит по кубряковским законам дружбы уже не один десяток лет.” Дата обращения: 28 сентября 2016. Архивировано 2 октября 2016 года.